

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHINI NAZORAT QILISHDA KUZATISH KUNDALIGI BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI

Fatima Batirova

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilishda kundalik tutishning ahamiyati, kundalik bilan ishlashning pedagogik xususiyatlari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Xulosa va yakuniy baholashda bolaning rivojlanishining umumiy tavsifi (masalan, "rivojlanish yosh normasiga mos", "ijtimoiy-kommunikativ sohada biroz kechikish mavjud"), bola kuchli tomonlari, qiziqishlari, yetakchi faoliyatlari hamda e'tibor talab qiladigan rivojlanish jihatlari kabilar tahlil qilinadi va baholanadi.

Kalit so'zlar: jismoniy rivojlanish, kundalik, funktsional ko'rsatkichlar, jismoniy sifatlar, antropometrik ko'rsatkichlar.

Abstract. The article examines the importance of keeping a daily record in monitoring the physical development of preschool children and provides recommendations on the pedagogical aspects of working with such records. In the conclusion and final assessment, a general description of the child's development is presented (for example, "development corresponds to age norms," "a slight delay is observed in the social and communicative domain"). In addition, the child's strengths, interests, leading activities, as well as developmental aspects requiring special attention are analyzed and evaluated.

Keywords: physical development, daily record, functional indicators, physical qualities, anthropometric indicators

Аннотация. В статье рассматривается значение ведения дневника в процессе контроля физического развития детей дошкольного возраста, а также даются рекомендации по педагогическим особенностям работы с дневником. В заключении и итоговой оценке представляется общая характеристика развития ребёнка (например, «развитие соответствует возрастной норме», «имеется незначительное отставание в социально-коммуникативной сфере»). Анализируются и оцениваются сильные стороны ребёнка, его интересы, ведущие виды деятельности, а также аспекты развития, требующие особого внимания.

Ключевые слова: физическое развитие, дневник, функциональные показатели, физические качества, антропометрические показатели.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish uchun kundalik bilan ishlash — bu bolaning harakat faolligi va umumiy sog'ligining holatini obyektiv baholash, tahlil qilish va zarur bo'lsa, tuzatish kiritishga qaratilgan tizimli jarayondir. Kundalik pedagoglar, tibbiyot xodimlari va ota-onalar o'rtasida

samarali hamkorlikni ta'minlab, jismoniy tarbiyani individuallashtirishga yordam beradigan asosiy vosita hisoblanadi.

Kundalikning asosiy bo'limlari va mazmuni - kundalik qulay to'ldirilishi va ma'lumotlarni oson tahlil qilinishi uchun aniq va tizimli tuzilishga ega bo'lishi kerak.

Bolalar jismoniy rivojlanishini kuzatish kundaligi bilan ishlash.

Bola haqidagi umumiy ma'lumotlar:

- Ismi, familiyasi, tug'ilgan sanasi, MTTga qabul qilingan sana.
- Sog'liq guruhi, shifokor tavsiyalari, o'tkazgan kasalliklari, allergiyalar.

Antropometrik ko'rsatkichlar.

Bu ma'lumotlar bolaning o'sish jarayonini aks ettiradi va odatda yiliga 2–3 marta o'lchanadi.

- Bo'y (tana uzunligi): 0,5 sm aniqlikdagi rostomer yordamida o'lchanadi.

- Tana massasi: tibbiy tarozida 50 g aniqlik bilan aniqlanadi.

- Ko'krak qafasi aylanasi.

– Rivojlanishning uyg'unligini baholash: bo'y va vazn nisbatini indekslar yoki sentil jadvallari orqali solishtirish.

Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari (pedagogik diagnostika).

Bu bo'limda asosiy harakat malakalari va jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi qayd etiladi. Asosiy harakatlar:

- Yugurish: tezlik (masalan, 30 m yugurish), chidamlilik.

- Sakrash: joyidan sakrash uzunligi.

- Uloqtirish: to'pni nishonga yoki masofaga uloqtirish.

- Tirmashish, muvozanat saqlash, to'siqlardan o'tish.

Jismoniy sifatlar – chaqqonlik, egiluvchanlik, kuch, koordinatsiya. Baholash usullari o'yin shaklidagi mashqlar, maxsus testlar (sm, soniya, takrorlar soni ko'rinishida qayd etiladi).

Funksional ko'rsatkichlar (tibbiyot xodimlari ishtirokida) – yurak urish tezligi (yuklamadan oldin va keyin) — yurak-qon tomir tizimi moslashuvini baholash, nafas olish tezligi hamda o'pkalarning hayotiy sig'imi (katta yoshdagi bog'cha bolalari uchun, agar spirometriya imkoni bo'lsa).

Kuzatuvlar va subyektiv ma'lumotlar. Bu bo'lim bolaning umumiy rivojlanishini tushunishda juda muhimdir – bola holati va uyqu sifati, turli faoliyatlarda harakat faolligi (mashg'ulotlarda, sayrda, erkin o'yinda), jismoniy mashqlarga hissiy munosabat (qiziqish, motivatsiya, charchoq yoki salbiy reaksiya mavjudligi), o'tirish-turish odatlari, yurish xususiyatlari, yassi oyoqlik belgilarining mavjudligi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlash metodikasi. Tizimlilik - o'lchovlar muntazam ravishda, bir xil sharoitda (odatda ertalab) va standart uskunalarda bajariladi.

Dinamik tahlil - natijalar sanalar bo'yicha ketma-ket qayd etilib, bir necha yil davomida o'zgarishlar tahlil qilinadi (3–7 yil oralig'ida).

Normativlar bilan solishtirish - har bir ko'rsatkich yosh me'yorlari bilan solishtiriladi. Bo'y-vazn nomutanosibligi, o'sishning ortda qolishi yoki haddan tashqari rivojlanish aniqlanishi mumkin.

Natijalarni sharhlash - tahlil asosida bolaning jismoniy rivojlanishining uyg'unligi, jismoniy tayyorgarlik darajasi, funksional imkoniyatlari haqida xulosa qilinadi.

Qaror qabul qilish - agar o'zgarishlar yoki muammolar aniqlansa, kundalik ma'lumotlariga tayangan holda individual jismoniy tarbiya dasturi, kun tartibi, ovqatlanish tizimi yoki tibbiy ko'riklar rejalashtiriladi.

Ota-onalar bilan hamkorlik - kundalik bolaning ehtiyojlarini tushunish va sog'lom rivojlanish jarayoniga ota-onalarni jalb etish uchun asosiy kommunikatsiya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Kuzatuv natijalari asosida pedagogik xulosa tuzish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish natijalari asosida pedagogik xulosa tuzish — bu bolaning individual rivojlanishi bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidir. Ushbu xulosa pedagogik qarorlar qabul qilish, individual ishlashni rejalashtirish hamda ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik xulosaning maqsadlari

Ta'limni individuallashtirishda har bir bola uchun uning yoshiga, imkoniyatlariga va rivojlanish sur'atiga mos individual ta'lim yo'lini belgilashdan iborat.

Rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va korreksiyada bolaning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va zarur pedagogik yoki psixologik yordam choralarni tanlashga asoslanadi.

Ta'lim samaradorligini baholashda mavjud o'quv dasturlari va pedagogik usullar natijadorligini aniqlashnadi.

Axborot berishda ota-onalarga, shuningdek, zarur holatlarda boshqa mutaxassislariga (psixolog, logoped, shifokor) obyektiv ma'lumot yetkaziladi.

Pedagogik xulosa aniq, izchil va tizimli bo'lishi kerak.

Bola haqida umumiy ma'lumotlar - familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi, kuzatuv vaqtida yoshi, kuzatuv o'tkazilgan sana, pedagogning F.I.Sh. hamda sog'liq guruhi, moslashuv jarayoni haqida qisqa ma'lumot kiritiladi.

Kuzatuv o'tkazilgan sharoitlar - kuzatuv qaysi vaziyatda o'tkazilgani (darsda, erkin o'yinda, sayrda va boshqalar).

Kuzatuv davomiyligi - qaysi metodlardan foydalanilgani (maqsadli kuzatuv, rivojlanish xaritasi asosida baholash, faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish) qayd etiladi.

Rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha tahlil - fizik rivojlanish, harakat faolligi, chaqqonlik, koordinatsiya, asosiy harakatlar (yugurish, sakrash, uloqtirish), umumiy motorika, muvozanat, gavda tuzilishi (osanka), bilish (kognitiv) rivojlanishi, qiziqish, mustaqillik, e'tibor, xotira, tafakkurning rivojlanish darajasi, nutq faolligi, so'z boyligi, ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish, o'rtoqlar va kattalar bilan muloqoti, emotsional javoblari, tashabbuskorlik, mustaqillik, badiiy-estetik rivojlanish, rasm,

loy ishlari, musiqa, qo‘shiq, dizayn faoliyatlariga qiziqish, ijodiy ko‘nikmalar darajasi, nutqiy rivojlanish, bog‘lanishli nutqning holati, tovushlarni talaffuz qilish hamda murojaat qilingan nutqni tushunish kabi yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil qilinadi

Xulosa va yakuniy baholashda bolaning rivojlanishining umumiy tavsifi (masalan, “rivojlanish yosh normasiga mos”, “ijtimoiy-kommunikativ sohada biroz kechikish mavjud”), bola kuchli tomonlari, qiziqishlari, yetakchi faoliyatlari hamda e‘tibor talab qiladigan rivojlanish jihatlarini baholanadi.

Pedagog uchun tavsiyalar - yirik motorika ustida ishlash, nutq faolligini oshiruvchi mashg‘ulotlar hamda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga e‘tibor qaratish lozim.

Ota-onalar uchun - uyda kitob o‘qib berish, suhbatlashish, chiniqtiruvchi jismoniy o‘yinlar tashkil qilish, mustaqillikni rivojlantirish vazifalari, mutaxassislar ko‘rigiga yuborish (zarurat bo‘lsa) psixolog, logoped nevrolog yoki pediater kabilar.

Pedagogik xulosa tuzishning asosiy prinsiplari

Obyektivlik - Faktlarga asoslanish, shaxsiy fikr yoki munosabatni aralashtirmaslik. Aniqlik va tushunarlilik - noaniq, ikki ma’noli, umumiy jumladan qochish. Maxfiylik - bolaga oid ma’lumotlar faqat ruxsat etilgan shaxslargagina taqdim etiladi. Dinamik ko‘rinish - xulosa bolaning ma’lum vaqt ichidagi rivojlanish dinamikasini aks ettirishi kerak.

Pedagogik xulosa real ishlash jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tavsiyalarni o‘z ichiga olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi”gi O‘RQ-595-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4646908>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ilk qadam davlat oquv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent- 2022-yil
4. Achilov A.M., Akramov J.A., Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. T.: Lider Press, 2009.-200 b.
5. Nazarov S.U. Morfofunktsional o‘zgarishlar. [Matn]:darslik.-Toshkent:”Umid design”. 2021. 304 b.
6. O‘rinboyeva D., Raximova M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish yo‘llari”.-Samarqand 2018. 52-56 b.
7. [https:// saviya.uz/turfa-olam/eng-katta-elektron- kutubxona](https://saviya.uz/turfa-olam/eng-katta-elektron-kutubxona)
8. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)